



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 13-avgust, № 164 (9335)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAYLIK!

YUKSALISH MEZONI

Mustaqillik – eng ulug' va bebaho boylik. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon o'tgan 35 yil tarixga ulkan o'zgarishlar, keng ko'lamlı islohotlar va yangi taraqqiyot bosqichlari bilan muhrlandi. Bu davr nafaqat davlatchilik asoslarini mustahkamlash, balki zamonaviy demokratik jamiyat qurish, inson manfaatlarini ta'minlash va xalqaro hamjamiyatda munosib o'rin egallash yo'lidagi muhim jarayon bo'ldi, desak, ayni haqiqat.

Mustaqillikning 35 yilligiga



Har yili bu sana mamlakatimiz bo'ylab eng ulug', eng aziz bayram sifatida katta shodu xurramlik bilan nishonlanadi. Zero, 35 yil mobaynida qilingan ishlar, erishilgan yutuqlar talay. Ayniqsa, so'nggi o'n yilda shahar va qishloqlarimiz qiyofasi tubdan o'zgarib, xalqimiz turmush darajasining ortib borayotgani Prezidentimizning jo'shqin ish faoliyati, uzoqni ko'ra bilishi va xalqchil, ijtimoiy yo'naltirilgan siyosati mahsulidir.

Shu davr mobaynida amalga oshirilgan barcha o'zgarishlarni nommanom sanash fikridan yiroqmiz. Birgina yurtimizdagi ishbilarmonlik muhiti haqida

mulohaza bildiradigan bo'lsak, bugun tadbirkor o'z faoliyatini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lyapti. Dehqonu fermerlar, klaster xo'jaliklari o'zlari yetishtirgan hosilning haqiqiy egasiga aylanmoqda. Bu esa sohani rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilgani samarasidir.

Qolaversa keyingi yillarda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, iqtisodiyotda davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan aniq manzilli chora-tadbirlar bunda asosiy omil bo'layotir.



Uchrashuv

MUHOKAMALAR MARKAZIDA – HAMKORLIKNI YANADA MUSTAHKAMLASH MASALASI

So'nggi yillarda O'zbekiston va Pokiston o'rtasida munosabatlar izchil rivojlanib, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarida amaliy hamkorlik kengayib bormoqda.

Kecha Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodik Safoyev va Pokiston Islom Respublikasining yangi tayinlangan O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Muhammad Mudassir Tipu o'rtasidagi samimiy muloqotda ham ayni masalalar kun tartibidan o'rin oldi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston va Pokiston davlatlari munosabatlari bugungi holati hamda istiqbollari muhokama qilindi.

Parlamentlararo aloqalarni yanada mustahkamlash masalalariga ham alohida

e'tibor qaratildi. Qonun ijodkorligi bo'yicha tajriba almashish, parlamentlararo hamkorlik guruhlar faoliyatini yanada jonlantirish, hududlararo aloqalarni kengaytirish hamda xalqaro parlament tashkilotlari doirasida o'zaro qo'llab-quvvatlash masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida ikki mamlakat xalqlari manfaatlarida parlamentlararo hamkorlikni yangi mazmun bilan boyitish bo'yicha ishlarni davom ettirishga kelishib olindi.

“Xalq so'zi”.

INSON KAPITALIGA INVESTITSIYA

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi tomonidan “Barqaror rivojlanish maqsadlari oyligi” doirasida “Inklyuziv va sifatli ta'limni rivojlantirish – inson kapitaliga investitsiya” mavzuida davra suhbatı o'tkazildi.

Davra suhbatı

Tadbirida qayd etilganidek, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, jumladan, maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish va sifatini yuksaltirish, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, so'nggi o'n yil davomida bog'chalarga qamrov darajasi 27,7 foizdan 78 foizga, oliy ta'limga esa 8,3 foizdan 47,7 foizga yetkazildi.

Bugungi kunda 2 610 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida inklyuziv o'quv sinflari tashkil etilgan bo'lib, ularda alohida

ta'lim olishga ehtiyoji bo'lgan 6,8 ming nafar bola o'qimoqda. Shuningdek, 248 ta umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ham inklyuziv guruhlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Mazkur muassasalardagi 519 ta shunday guruhda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan 1 753 nafar bola tarbiyalanmoqda.

Davra suhbatida o'quv sifatini oshirish, inklyuziv sinflar faoliyatini kengaytirish, muassasalarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun qulay va to'siqsiz muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, shuningdek, sohada mavjud muammolar muhokama qilindi.



Tahlil

O'zbekiston parlamentarizmi:

35 YILLIK TARAQQIYOT, TAJRIBA VA ISTIQBOLLAR

Muqaddima

Tarixda shunday yillar borki, ularni taqvim emas, xalqlar taqdiri belgilaydi. 1960-yil “Afrika yili” sifatida tarixga kirgan bo'lsa, 1991-yilni ham tarixiy mazmuniga ko'ra “Mustaqillik yili” deb atash mumkin. Zero, bu yilda sobiq ittifoq hududidagi respublikalar ozodlik va davlat mustaqilligiga erishdi. O'zbekiston uchun esa 1991-yil nafaqat mustaqillik, balki milliy parlamentarizm

rivojining ham boshlanish nuqtasi bo'ldi.

Nega? Chunki mustaqil davlatchilik xalq irodasini ifodalovchi vakillik institutini shakllantirishni taqozo etar edi. Shu nuqtayi nazardan, parlament – bu faqat qonun qabul qiladigan organ emas. U, avvalo, xalq irodasining siyosiy ifodasi, turli ijtimoiy manfaatlarining qonuniy muloqot maydoni, hokimiyatning muvozanat va

tiyib turish mexanizmlaridan biri, davlat siyosatining qonuniyligi hamda xalqchilligini ta'minlovchi demokratik institutdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, bugun mamlakatimizda kuchli va mas'uliyatli parlamentni barpo etish, samarali parlament diplomatiyasini tatbiq qilish uchun keng sharoitlar yaratilmoqda. Bu fikr O'zbekiston

parlamentarizmini rivojlantirishning muhim dasturiy g'oyasini ifodalaydi.

Shu ma'noda, Yangi O'zbekistonda parlamentarizmning 35 yillik tarixiga nazar tashlash – mamlakatimizda xalq hokimiyatchiligi, inson huquqlari va qonun ustuvorligi, demokratik institutlar va siyosiy pliyuralizm qanday shakllangani va rivojlanганиni ko'rish demak.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

OCHIQ MULOQOT, ANIQ TAKLIF VA AMALIY YECHIMLAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasi tomonidan mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “Istiqlol yillarida tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash borasidagi islohotlar jarayonida parlamentning o'rni va roli” mavzuida tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o'tkazildi.



Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari Rahimjon Hakimov tadbirni kirish so'zi bilan ochib, mamlakatimizda Prezidentimiz rahbarligida xususiy mulkni himoya qilish, tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, biznesda ortiqcha ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, ishbilarmonlik muhitini yanada

yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar haqida to'xtalib o'tdi.

Ta'kidlaganidek, bugun O'zbekiston biznes yuritish uchun qulay mamlakatga aylanib bormoqda. Yurtimizda tadbirkorlarga yaratilayotgan sharoitlar, berilayotgan imkoniyatlar tufayli yangi subyektlar

keskin ko'payib, avvaldan ishlayotganlari o'z faoliyatini yanada kengaytirdi. 2025 – 2030-yillarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish strategiyasining tasdiqlanishi esa sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish uchun muhim huquqiy va institutsional asos yaratdi.

So'nggi yillarda sohaga doir ko'plab qonunlar qabul qilindi. Xususan, 2026-yil 21-apreldagi “Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida”gi hamda shu yil 7-avgustda imzolangan “Rieltorlik faoliyati to'g'risida”gi qonunlar tadbirkorlik subyektlarida korporativ boshqaruvni tartibli va mas'uliyatli olib borish, ko'chmas mulk bozorini professional, shaffof va ishonchli tizimga aylantirish borasida mustahkam huquqiy poydevor yaratdi.



Barhayot satrlar

VATAN

Abdulla O'RIPOV,
O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri

Agar do'stlar erur sodiq bir-birin qiyratib bo'lmas,
Agar qilg'il necha fitna alarni ayratib bo'lmas,
Demishlar: moru qushni bir qafasda asratib bo'lmas,
Vatandan ayri ko'ngilni, bilingki, yayratib bo'lmas,
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

Vatan deb men bayon qildim, ayo do'stlar, muxammasni,
Vatanni kim ulug' bildi, aziz bildim men u kasni,

Vatan deb jo'sh urur ersa ko'targum boshima hasni,
Vatandan ayri ko'ngilni, bilingki, yayratib bo'lmas,
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

Nadomat birla boqq'ayman vatansizlarga har doim,
Egib boshini zor yig'lar, agarchi davlati qoyim,
Faqir bo'lsam-da bor yurtim – toju taxtim, borar joyim,
Vatandan ayri ko'ngilni, bilingki, yayratib bo'lmas,
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.
Bobolar kechmishin hargiz faromush aylamang, do'stlar,

Biz va jahon

TINCHLIK VA ISHONCH ME'MORIGA AYLANGAN YANGI O'ZBEKISTON

...Chegara postida navbat sekin ilgirilaydi. Chegarachi pasportni ochadi, bir laha ko'z yugurtirib, navbatdagi tamg'ani bosadi. Yo'lovchi xotirjam ravishda o'z manziliga ravona bo'ladi. Bir qarashda bu kundalik va odatiy jarayon. Ammo ana shu bir necha soniya ortida yillab davom etgan muzokaralar, murakkab kelishuvlar, o'zaro ishonch va oqilona diplomatiya mujassam.

Mustaqillikning 35 yilligi arafasida ortga nazar tashlar ekanmiz, O'zbekiston bosib o'tgan yo'lining eng muhim natijalaridan biri aynan mana shu – ochiq va ishonchli qo'shnichilik muhitining shakllaniganida ko'rinadi.

Zero, mustaqillik faqat siyosiy suverenitet emas. Mustaqillik – xalqning erkin yashashi, o'z taqdirini o'zi belgilashi, qo'shnilari bilan tinch-totuv hamkorlik qilishi va o'zaro bilan teng muloqot yuritila olishidir.

Ammo bugungi ochiq chegaralar va ishonchli qo'shnichilik muhiti birdaniga paydo bo'lgani yo'q. Chunonchi, chegaralar tarixi ham sinadi, diplomatiyani ham.

1991-yilda sobiq ittifoq parchalangan Markaziy Osiyoda beshta mustaqil davlat dunyo sahnasiga chiqdi. Siyosiy

suverenitet e'lon qilindi, biroq davlat chegaralarining katta qismi xalqaro huquq normalari asosida hali rasmiylashtirilmagan edi. Sobiq tuzum davrida ma'muriy chiziqli ishbolangan hududlar bir kechada xalqaro chegaraga aylandi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysida chegaralar aholi punktlari, sug'orish tarmoqlari, yaylovlar va avtomobil yo'llarini kesib o'tgani sababli masala yanada murakkablashdi.

O'sha davrda chegara masalasi faqat siyosiy yoki huquqiy muammo emas edi. U minglab oilalarning kundalik turmushiga ta'sir ko'rsatardi. Bir qishloqdan ikkinchisiga o'tish uchun o'nlab kilometr aylanib yurishga to'g'ri kelar, qarindoshlar o'rtasidagi qatnov murakkablashar, tadbirkorlar uchun esa logistika xarajatlari ortardi.



FARMATSEVTIKA – MILLIY RIVOJLANISHNING USTUVOR YO'NALISHI

Bugungi kunda dunyo miqyosida aholi salomatligini muhofaza qilish, dori vositalari xavfsizligi va ularning ommabopligini ta'minlash har bir davlatning strategik vazifasiga aylangan. Shu bois keyingi yillarda yurtimizda ham sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh etish, aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, zamonaviy diagnostika va davolash texnologiyalarini qo'llash, tibbiyot muassasalarini modernizatsiyalash hamda farmatsevtika sanoatini iqtisodiyotning drayver tarmoqlaridan biriga aylantirish borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

Nuqtai nazar

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson qadriini ulug'lash va aholi salomatligini ta'minlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangani bejiz emas. Chunki mamlakatning iqtisodiy qudrati, mehnat unumdorligi va demografik barqarorligi, avvalo, aholi salomatligi bilan chambarchas bog'liq. Bu vazifani esa kuchli farmatsevtika sanoatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

E'tibor bering: oxirgi yillarda tarmoqqa 1,8 milliard dollar investitsiya jalb qilinishi, 140 ta yangi ishlab chiqarish quvvatining tashkil etilishi, 300 dan ortiq farmatsevtika korxonalarining faoliyat yuritishi hamda ishlab chiqarish hajmining 3,5 barobar o'sishi mamlakatimizda ushbu soha

davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini yaqqol namoyon qilmoqda.

Biroq erishilgan natijalar bilan cheklanib qolish mumkin emas. Dunyo farmatsevtika bozori mislsiz sur'atlarda rivojlanmoqda. Biotehnologiya, gen muhandisligi, sun'iy intellekt, raqamli tibbiyot va personallashtirilgan davolash texnologiyalari butun tarmoq qiyofasini o'zgartirmoqda. Bu esa O'zbekiston farmatsevtikasi oldiga ham mutlaqo yangi talablarni qo'ymoqda.

Ana shu nuqtayi nazardan Prezidentimiz tashabbusi bilan farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha belgilab berilayotgan ustuvor vazifalar sohaning mutlaqo yangi mexanizmlarini yo'lga qo'yishga asos bo'layotir.



Haqiqat tongi otganda ani tush aylamang, do'stlar,
Agar kim e'tiqodsizdur, ani xush aylamang, do'stlar,
Vatandan ayri ko'ngilni, bilingki, yayratib bo'lmas,
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

Diyorim O'zbekistondur, ki andin itfixorim bor,
Demakim, hur adolatlig', davlati barqarorim bor,
Onamdek mehribon, munis Vatan bor, g'amguzorim bor,
Vatandan ayri ko'ngilni, bilingki, yayratib bo'lmas,
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

Vatan, sen hur, yo'ling shonli, qadamni tashlagin shaxdam,
Faxrla boq'ay Abdullo, ko'zida shodligidan nam,
Panohingni tilab Haqdin dilida iltijo har dam,
Vatandan ayri ko'ngilni, bilingki, yayratib bo'lmas,
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

Oʻzbekiston parlamentarizmi:

35 YILLIK TARAQQIYOT, TAJRIBA VA ISTIQBOLLAR



Zamonaviy parlamentarizmning eng oliy mezonini – parlamentning xalqqa qanchalik naf keltirayotgani, inson huquqlari va erkinliklarini qay darajada himoyalayotgani, jamiyat taraqqiyotiga qanday hissa qoʻshayotgani bilan belgilanadi. Zero, xalqqa xizmat qiladigan parlament, oxir-oqibat, davlatning oʻziga ham, uning kelajigiga ham kamarbasta boʻladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning: **«Naf'ing agar xalqqa beshakdurur, Bilki, bu naʼ oʻzungga koʻprakdurur»**, degan misralari aynan shu mezonni ifoda eta oladi. Bu qarash har bir deputat va senator faoliyatining muhim maʼnaviy mezonini belgilaydi. Hozirgi kunda Oʻzbekiston parlamentining oʻzi ham, uning davlat hokimiyati tizimidagi oʻrni ham, parlamentga nisbatan xalqning talabi ham oʻzgardi. Kecha parlament uchun asosiy savol “Qanday qonun qabul qilish kerak?” boʻlgan boʻlsa, bugun unga yanada murakkabroq savol qoʻyilmoqda: “Qabul qilingan qonun inson hayotini qanday oʻzgartirdi?” Oʻzbekiston parlamentarizmining keyingi taraqqiyot bosqichini aynan shu savol belgilab berishi kerak.

Milliy parlamentarizmning tarixiy ildizlari

Parlamentarizmning asosiy mezonlaridan biri – parlamentning davlat hokimiyati tizimida qanchalik taʼsirchan va mustaqil institut ekanligidir.

Jahon parlamentarizmi tarixiga nazar tashlasak, Angliyadagi parlament anʼanalari, Yevropada va Amerikadagi vakillik organlari, keyinchalik konstitutsionalizm va demokratik davlatlikning rivojlanishi zamonaviy parlamentarizmning shakllanishiga asos boʻlganini koʻramiz.

Oʻzbekiston parlamentarizmining tarixiy ildizlari qadimiydir. “Avesto” kabi mamlakatimiz tarixiga oid eng qadimgi manbalarda jamiyat va davlat hayotidagi muhim qarorlar yakka hukmdor emas, balki xalq yigʻinlari, oqsoqollar va qabila boshliqlarining jamoaviy masʼvarati orqali qabul qilingani haqidagi qarashlar uchraydi. Bu jamoa manfaatlarini muhofaka etish va kelishuvga asoslangan boshqaruvning ilk madaniy poydevorlaridan biri edi.

Turk xoqonligida davlatning muhim masalalari Qurultoy va Kengash yigʻinlarida muhokama qilinib, kelishuv asosida hal etilgan.

Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida ham kengash va maslahatning ahamiyatiga ishora beruvchi: “Kengashda qilingan ishning gengchiligi, yengilligi boʻladi, kengashsiz qilingan ish esa torlik, qiyinchilik”, degan fikr keltiriladi.

Sohibqiron Amir Temur davlatchiligida ham “Mashvarat” – kengash va oliy “Qurultoylar” davlat ishlarini hal etishda muhim oʻrin tutgan. “Temur tuzilari”da keltirilgan: “Saltanat ishlarining toʻgʻiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltiriladi”, degan mashhur fikr davlat qarorlarining puxtaligi koʻp jihatdan fikrlar xilmaxilligi va maslahat madaniyatiga bogʻliq ekanini koʻrsatadi.

Bugun “Eng yaxshi parlament modeli qaysi?” degan savolga yagona javob yoʻq. Eng yaxshi model muayyan mamlakatning tarixiy taraqqiyoti, davlat tuzilishi, siyosiy-huquqiy madaniyati va jamiyat ehtiyojlariga eng mos keladigan modeldir.

Shu bois Oʻzbekiston parlamentarizmining eng muhim vazifalaridan biri – xorijiy parlament tajribasini koʻr-koʻrona ravishda koʻchirish emas, balki jahon tajribasidan milliy davlatchilik xususiyatlariga mos boʻlgan eng samarali institut va mexanizmlarni tanlab olishdir.

Zamonaviy parlamentarizm uch maʼnoda

Parlamentarizm haqida soʻz yuritganda, avvalo, uning mazmun-mohiyatini toʻgʻri anglab olish muhim. Chunki u faqat parlamentning mavjudligi yoki uning faoliyati bilan cheklanmaydi. Parlament murakkab va koʻp qirrali siyosiy-huquqiy voqealik boʻlib, oʻzining normativ va amaliy jihatlariga ega. Shu nuqtayi nazardan, “parlamentarizm” tushunchasini uch oʻzaro bogʻliq maʼnoda talqin qilish mumkin.

Birinchidan, parlamentarizm – qonunchilikdir.

Parlamentarizm, avvalo, parlamentning qonun ijodkorligi faoliyati, qonunlarni qabul qilish, takomillashtirish va ular ijrosi nazorati bilan bogʻliq jarayonlarni anglatadi.

Parlamentning eng asosiy funksiyasi – qonun qabul qilish. Biroq zamonaviy parlamentarizmi faqat shu jarayon bilan cheklab boʻlmaydi. Bugun parlamentning qonunchilik faoliyati bilan bir qatorda Davlat byudjeti, parlament nazorati, hukumatning hisobdorligi, siyosiy partiyalar faoliyati, inson huquqlari va jamoatchilik manfaatlarini ifodalash kabi vazifalari ham parlamentarizmning uzviy qismlari.

Ikkinchidan, parlamentarizm – parlament huquqi nazariyasidir.

Parlamentarizm nazariyasi “Parlament qanday boʻlishi kerak?”, “Parlament qanday ishlashi lozim?”, “Parlamentning davlat va jamiyatdagi ustuvor vazifasi nimadan iborat?” degan savollarga javob ilaydi. Shu nuqtayi nazardan parlamentarizm siyosatshunoslik, konstitutsiyaviy huquq, parlament huquqi va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar kesishuvida shakllangan mustaqil ilmiy yoʻnalish sifatida namoyon boʻladi.

Shu bois Oʻzbekiston parlamentarizmining 35 yillik taraqqiyotini oʻrganish asnosida, faqat qabul qilingan qonunlar yoki parlamentning tashkiliy tuzilishi bilan cheklanib qolmaslik kerak. Parlament institutining nazariy asoslari qanday oʻzgargani, parlamentarizmga boʻlgan ilmiy va siyosiy yondashuvlar qanday rivojlangani, milliy parlamentarizm modeli qanday shakllanganini ham tadqiq etish zarur.

Uchinchidan, parlamentarizm – parlament amaliyotidir.

Parlamentarizmning uchinchi va ehtimol, eng muhim maʼnosi uning amaliy ifodasidir. Chunki har qanday ilmiy nazariya va huquqiy norma faqat amaliyotda oʻzining haqiqiy tasdigʻini namoyon etadi. Gyote oʻzining mashhur “Faust” tragediyasida:

«Nazariya – quruq ogʻochdir,

Lekin yashnar hayot daraxti»,

deb yozgan. Ushbu satrlar Oʻzbekiston Qahramoni va xalq shoiri Erkin Vohidov tomonidan mohirona tarjima qilingan.

Parlamentarizm amaliyoti – parlamentning kundalik faoliyati, deputatlarning saylovchilar bilan munosabati, qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayoni, parlament nazorati, hukumat hisobdorligi, parlamentdagi siyosiy partiyalar va fraksiyalar faoliyati, parlament muxolifati, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni qamrab oladi.

Shu bois parlamentarizmning amaliy mazmunini “Parlament amalda qanday ishlayapti?” degan savol orqali izohlash mumkin. Agar qonunlar sifati boʻlsayu lekin ular ijro etilmasa – bu toʻlaqonli parlamentarizm emas. Agar parlamentning vakolatlari Konstitutsiyada belgilab qoʻyilgan boʻlsayu biroq ular amalda samarali ishlamas – bu ham toʻlaqonli parlamentarizm emas. Agar parlamentda siyosiy partiyalar mavjud boʻlsayu ammo har oʻrtasida real fikrlar xilmaxilligi va konstruktiv siyosiy raqobat boʻlmasa – parlamentarizmning siyosiy mazmuni toʻliq namoyon boʻlmaydi.

Shu bois parlamentarizmning haqiqiy mohiyatini “qonunchilik – nazariya – amaliyot” birligi asosida baholash zarur. Qonunchilik parlamentarizmning huquqiy poydevorini tashkil etadi. Nazariya uning ilmiy va maʼnaviy-axloqiy asoslarini belgilaydi. Amaliyot esa ushbu huquqiy va nazariy asoslarni hayotga tatbiq qiladi.

Haqiqiy parlamentarizm – ilmiy nazariya, mukammal qonunchilik va samarali parlament amaliyotining uygʻunligidir.

Oʻzbekistonda parlamentarizmning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Mustaqillik yillarida Oʻzbekiston parlamentarizmining eng muhim amaliy natijalaridan biri – milliy qonunchilik tizimining izchil shakllantirishi va takomillashtirilishi boʻldi.

1991 – 2026-yillar mobaynida mamlakatda jami 1563 ta qonun va 19 ta kodeks qabul qilingan. Shu davrda Oʻzbekiston tomonidan 129 ta xalqaro shartnoma ratifikatsiya qilinib, 3 ta xalqaro shartnoma denonsatsiya etilgan. Bu raqamlar shunchaki statistika emas. Ular parlamentning milliy huquqiy makonni shakllantirish va Oʻzbekistonning xalqaro huquqiy majburiyatlarini milliy qonunchilik bilan uygʻunlashtirish borasidagi salmoqli faoliyatini koʻrsatadi.

Oʻzbekistonda parlamentarizm tarixini shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich – 1990 – 2004-yillar. Bu – soxta xalq vakilligidan haqiqiy parlamentarizmga oʻtish davri. 1990-yilda Oliy Kengashning tashkil topishi, Prezidentlik institutining ijro etilishi va 1991-yilda davlat mustaqilligining eʼlon qilinishi Oʻzbekiston parlamentarizmi uchun yangi tarixiy bosqichni boshlab berdi. Bu davrni bir palatali milliy parlament va konstitutsiyaviy parlamentarizmning shakllanish bosqichi deb atash mumkin.

1992-yilgi Konstitutsiya parlamentning huquqiy maqomini belgilab berdi. Shu davrda qonun ijodkorligi, parlament qoʻmitalari, deputatlik faoliyati va siyosiy partiyalarning parlamentdagi ishtiroki shakllana boshladi.

Ikkinchi bosqich – 2005 – 2016-yillar. Bu – ikki palatali parlament tizimiga oʻtish bosqichi. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat ikki palatali tizimga oʻtishi parlamentning institutsional rivojida tub burilish boʻldi. Buning asosiy maqsadi, bir tomondan, xalqning siyosiy irodasini ifodalovchi va qonun ijodkorligiga ixtisoslashtirilgan professional Qonunchilik palatasini shakllantirish boʻlsa, ikkinchi tomondan, hududiy vakillikni taʼminlaydigan Senati rivojlanish edi.

Uchinchi bosqich – 2017 – 2026-yillar. Bu – Yangi Oʻzbekiston parlamentarizmi davri. Bu bosqichni parlamentning siyosiy va nazorat vakolatlari kengaytirish bosqichi deb baholash mumkin.

Harakatlar strategiyasi va “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi doirasida parlamentning davlat va jamiyat hayotidagi roliga yangicha yondashuv shakllandi. Parlament nazoratining yangi shakllari rivojlandi, “Hukumat soati” instituti kengaydi, parlament soʻrovlari, deputatlik soʻrovlari, qoʻmitalarda vazirlik va idoralar rahbarlarining hisobotlarini eshitish amaliyoti kuchaydi. Eng muhimi, parlament faoliyatida “qonun qabul qilishdan – qonun ijrosini nazorat qilishga” oʻtish tendensiyasi paydo boʻldi.

2023-yilda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi va 2024-yilda yangi konstitutsiyaviy asosda parlament saylovlarining oʻtkazilishi Oʻzbekiston parlamentarizmi tarixida yangi bosqichni boshladi.

2024-yilgi parlament saylovleri Oʻzbekiston tarixida Qonunchilik palatasiga aralash saylov tizimi asosida oʻtkazilgan birinchi saylov boʻldi: 150 deputatlik oʻrning 75 tasi bir mandatli okruglarda majoritar tizim, 75 tasi esa partiya roʻyxatlari asosida proporsional tizim boʻyicha shakllandiladi.

Shu tariqa, 35 yillik taraqqiyot davomida Oʻzbekiston parlamentarizmi bir palatali parlamentdan ikki palatali parlament, vakillik organidan professional parlament, qonun



Akmal SAIDOV,
Oʻzbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi deputati,
akademik.

ijodkorligidan taʼsirchan parlament nazorati sari rivojlandi.

Yangi Oʻzbekiston va parlamentarizm

Yangi Oʻzbekiston gʻoyasining eng muhim jihatlaridan biri – Millat sardori olgʻa surgan “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, degan tamoyilning davlat boshqaruvidagi barcha boʻgʻinlarga tatbiq etilishidir. Bunda parlamentning oʻrni alohida. Chunki parlament davlat va xalq oʻrtasidagi eng muhim siyosiy-huquqiy koʻprikdir. Yangi Oʻzbekiston parlamentarizmda uchta asosiy tendensiyani koʻrish mumkin.

Birinchi tendensiya – parlamentning davlat hokimiyati tizimidagi siyosiy roli va ahamiyati oshib bormoqda. Qonunchilik palatasining ijro hokimiyati bilan munosabatlarda parlamentning oʻrni kuchaymoqda. Hukumat aʼzolarining parlamentdagi hisobdorligi ortmoqda. Qonunchilik palatasining Bosh vazir nomzodini koʻrib chiqishi, hukumat aʼzolari nomzodlarini maʼqullashi, hukumat hisobotlarini eshitishi parlament masʼuliyatini sezilarli darajada oshirmoqda.

Davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek, Oʻzbekistonda “Milliy parlamentarizmini rivojlantirish va xalq hokimiyatini mustahkamlash, davlat boshqaruvi organlari hisobdorligini taʼminlashga qaratilgan keng koʻlamli tashkiliy-huquqiy choralar amalga oshirilmoqda”.

Ikkinchi tendensiya – parlament nazoratining mazmuni kengaymoqda.

Parlament nazorati endi faqat vazirning hisobotini eshitish bilan cheklanmasligi kerak. Uning asosiy mezonini – “Parlament qabul qilgan qonun amalda inson hayotini qanchalik oʻzgartirdi?” degan savolga javob berish. Prezidentimiz taʼkidlaganidek: “Har bir qonunning, taʼbir joiz boʻlsa, koʻzi, oyogʻi, ijrosi boʻlishi lozim. Qonun qabul qilindimi, albatta, hayotda oʻzgarish boʻlishi kerak”.

Uchinchi tendensiya – parlamentning xalq bilan aloqasi mustahkamlanmoqda. Deputat saylov okrugiga borib, faqat uchrashuv oʻtkazishi emas, balki muammoni aniqlashi, uni qonunchilik tashabbusiga aylantirishi va yechimini nazorat qilishi kerak. Shu maʼnoda deputat faoliyatini baholashning yangi mezonlari zarur: “Deputat nechta yigʻilishda qatnashdi?” emas, balki “U oʻz saylovchilari hayotida qanday oʻzgarish qildi?” – ana shu savol muhim.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va parlamentarizm

35 yillik parlamentarizm tarixi biz uchun faqat oʻtgan yoʻlni sarhisob qilish emas. Bu – “Biz qayerdan keldik?”, “Biz qanday parlament qurmoqdamiz?” va “Kelajak avlodga qanday parlamentarizm qoldirmoqchimiz?” degan savollarga javob izlash imkoniyatidir.

2023-yili referendumda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya Oʻzbekiston parlamentarizmining huquqiy asoslarini sezilarli darajada kengaytiradi. Konstitutsiya davlat hokimiyati tizimida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining oʻzaro hamkorligi va muvozanatini kuchaytirishga qaratilgan. Shu maʼnoda, parlamentni kuchaytirish – ijro hokimiyatini zaiflashtirish degani emas. Aksincha, kuchli parlament kuchli va masʼuliyatli ijro hokimiyatining kafolatlaridan biridir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada parlamentga taalluqli normalar oʻziga xos yoʻnalishlarda takomillashtirildi.

Birinchi yoʻnalish: qonun chiqaruvchi hokimiyat maqomi va xalq vakilligi kuchaytirildi.

Ikkinchi yoʻnalish: parlament nazorati va ijro etuvchi hokimiyat masʼuliyati ortdi.

Uchinchi yoʻnalish: davlat organlarini shakllantirishda parlament vakolatlari kengaytirildi.

Toʻrtinchi yoʻnalish: parlamentning tashqi siyosat va konstitutsiyaviy nazoratdagi roli oshdi. Xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish, diplomatik vakillarni tayinlash hamda tashqi siyosiy tashabbuslarni ilgari surishda Oliy Majlisning ishtiroki kengaytirildi.

Beshinchi yoʻnalish: mahalliy vakillik organlari va parlament oʻrtasidagi integratsiya kuchaydi. Hokimlarning bir vaqtning oʻzida xalq deputatlari Kengashlariga rahbarlik amaliyotining bosqichma-bosqich bekor qilinishi mahalliy Kengashlarning mustaqilligini oshirishga yoʻl ochdi.

35 yillik parlamentarizm tajribasi asosida muhim xulosalarga kelish mumkin.

Birinchi xulosa: Oʻzbekiston parlamentarizmi tayyor bir modelni koʻchirish asosida emas, balki milliy davlatchilik hamda xalqaro va xorijiy demokratik tajribaning uygʻunligi asosida shakllandi.

Ikkinchi xulosa: parlamentarizm bir marta yaratib qoʻyiladigan institut emas. U doimiy rivojlanishni talab qiladigan siyosiy-huquqiy jarayondir.

Uchinchi xulosa: parlamentning kuchli

boʻlishi faqat deputatlar va partiyalar soni yoki vakolatlar miqdori bilan belgilanmaydi. Uning haqiqiy kuchi qonunlarning sifati, nazorat mexanizmlarining taʼsirchanligi, siyosiy partiyalar raqobati, parlament muxolifatining faolligi, deputatlarning professionalligi va xalqchilligi bilan belgilanadi.

Toʻrtinchi xulosa: Oʻzbekiston parlamentarizmining istiqboldagi asosiy vazifasi – “vakolatli parlament”dan “natijador parlament”ga oʻtish. Yaʼni parlamentga koʻproq vakolat berish bilan birga, uning har bir vakolati natija koʻrsatishi kerak.

Beshinchi xulosa: parlament demokratiyasida konstruktiv muxolifat ham parlament sifatining muhim mezonidir. Sogʻlom tanqid, muqobil fikr va siyosiy raqobat qonunlarning sifati oshiradi. Shu oʻrinda jahon parlamentarizmi bizga muhim saboq beradi: parlamentning yoshi emas, uning samaradorligi muhim.

Baʼzi parlamentlar asrlar davomida shakllangan. Baʼzilari esa nisbatan yosh. Ammo parlamentning haqiqiy kuchi uning qadimiyligi, vakolatlari, fraksiyalari va majlislari bilan emas, balki xalq ishonchini qay darajada oqlashi, qonunlarning hayotda ishlashi va davlat hokimiyati ustidan demokratik nazoratni qanchalik samarali amalga oshirishi bilan oʻlchanadi. Qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfutsiyning: “Xalqning ishonchi boʻlmasa, davlat mavjud boʻla olmaydi”, degan fikri ham shu haqiqatni ifodalaydi.

Yangi Oʻzbekiston parlamentarizmini rivojlantirish istiqbollari

Yangi Oʻzbekiston parlamentarizmi istiqbollari qanday?

Raqamli parlamentga oʻtishni jadallashtirish. “Raqamli parlament” konsepsiyasi doirasida qonun loyihalarini sunʼiy intellekt yordamida huquqiy va korruptsiyaviy ekspertizadan oʻtkazish, qonunlarning taʼsirini raqamli monitoring qilish, deputatlik soʻrovlarining yagona elektron monitoring tizimini yaratish, fuqarolarning parlamentga elektron murojaatlarini qonun ijodkorligi bilan bogʻlash zarur.

Parlamentning inson huquqlari boʻyicha salohiyatini oshirish. Har bir qonun loyihasining inson huquqlari va erkinliklariga taʼsirini parlament darajasida baholashning samarali tizimini kuchaytirish lozim.

Fuqarolarning qonunchilik tashabbusini kuchaytirish. Fuqarolarning qonun ijodkorligidagi ishtiroki real mexanizmga aylinishi kerak.

“Natijaga yoʻnaltirilgan parlament nazorati” tizimini joriy etish. Parlament nazorati hisobot bilan emas, muammoning yechimi bilan yakunlanishi joiz.

Parlamentning byudjet nazoratini kuchaytirish. Parlamentning byudjet jarayonidagi ishtiroki faqat Davlat byudjetini qabul qilish bilan cheklanmasligi kerak. Byudjet mablagʻlarining maqsadli, samarali va natijador sarflanishi ustidan samarali parlament nazoratini kuchaytirish dardkor.

Parlament muxolifati institutini yanada rivojlantirish. Muxolifatga berilgan huquqlar amalda ishlashi, parlamentda muqobil qonun loyihalari va muqobil siyosiy pozitsiyalar uchun real maydon yaratilishi kerak.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini kuchaytirish. Haqiqiy vakillik demokratiyasi mahalliy Kengashlardan boshlanadi. Shuning uchun mahalliy Kengashlarning byudjet, hududiy rivojlanish, ijtimoiy siyosat va kommunal infratuzilma masalalaridagi vakolatlari yanada kuchaytirish zarur.

Parlamentshunoslikni mustaqil ilmiy yoʻnalish sifatida rivojlantirish. Oʻzbekistonda parlamentarizmning 35 yillik tajribasini ilmiy jihatdan umumlashtirish, parlament huquqi va parlamentshunoslik boʻyicha maxsus tadqiqotlarni kengaytirish, parlament amaliyotini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish vaqti keldi. “Oʻzbekiston parlamentarizmi tarixi”, “Parlament nazorati nazariyasi va amaliyoti”, “Parlament diplomatiyasi” kabi yoʻnalishlarda fundamental tadqiqotlar zarur.

Xotima

Oʻzbekiston parlamenti 35 yillik taraqqiyoti davrida Oliy Kengashdan Oliy Majlisga, bir palatali tizimdan ikki palatali parlamentga, sessiyaviy faoliyatga asoslangan parlamentdan doimiy va professional asosda ishlaydigan parlamentga, qonun qabul qiluvchi organ maqomidan nazorat va vakillik funksiyalari kuchaygan institutga aylinish yoʻlini bosib oʻtdi.

Yangi Oʻzbekistonga shunchaki kuchli parlament emas, balki:

haqiqiy va samarali professional parlament; xalqqa yaqin xalqchi parlament; raqamli va ochiq parlament; qonunlari samarali ishlaydigan parlament; nazorati natija beradigan parlament; muxolifat fikri eshtiladigan parlament; yoshlar va xotin-qizlar, aholining barcha qatlamlari ovozi toʻla aks etadigan parlament; xalqaro maydonda milliy manfaatlarni faol himoya qiladigan parlament kerak.

Eng muhimi, parlament “Xalq uyi” degan yuksak nonga munosib boʻlishi lozim. Chunki parlamentning haqiqiy qudrati uning devorlarida emas – xalq ishonchida. Deputatning haqiqiy maqomi uning lavozimida emas – xalq oldidagi masʼuliyatida. Qonunning haqiqiy qiymati uning matnida emas – inson hayotini qanchalik yaxshilaganida.

Biz parlamentarizmi shunchaki rivojlantirishimiz emas, uni xalqning kundalik hayotida seziladigan demokratiyaga aylantirishimiz kerak. Ana shunda 35 yillik parlamentarizm tajribasi tarixiy natijaga, bugungi islohotlar esa kelajak avlod uchun mustahkam demokratik merosga aylanadi.

TINCHLIK VA ISHONCH MEʼMORIGA AYLANGAN YANGI OʻZBEKISTON



Shu oʻrinda bolaligimda meni juda taʼsirlantirgan, hanuz eslasam koʻzim yoshga toʻladigan bir voqeani boʻlishishni istadim.

Bundan roppa-rosa oʻn toʻrt yil oldin 12 yoshimda ota-onam bilan yurtimiz boʻylab sayohatga chiqdik. Yoʻlda ovqatlanishga toʻxtadik. Qoʻshni stoldan biz, ota va qizning oʻzaro hazil-huzul qilib baxtiyor oʻtirganimizni kuzatib turgan bir ayol oʻz-oʻzidan yigʻlab yubordi. Bir lahza nima qilishni bilmay hayratdan qotib qoldik. Keyin ayolning oʻzi soʻz boshladi: “Mening ismim Gulzoda. Men ham otamning yakkayu yagona arzanda qizalogiʻ edim. Ulgʻayib qoʻshni qishloqqa kelin boʻldim. Uylarimiz orasidagi masofa atigi 10 – 15 daqiqalik yoʻl edi. Keyin chegaralar bizni ajratib yubordi. Bizning qishloq Oʻzbekistonda, ular esa Tojikiston tarkibida qoldi. Keyin...” Bir lahza toʻxtadi haligi ayol. Koʻzlaridan yoshlar yana milt-milt etib toma boshladi. “Bir necha yildan soʻng oʻtam vafot etdi. Men esa uni soʻnggi manzilga kuzata olmadim. Chegaradan oʻtkazishmadi...”

Bugun ulgʻayib shuni angladimki, chegara shunchaki xaritadaagi chiziqliq emas, balki inson taqdiri bilan chambarchas bogʻliq ekan aslida.

Chegara masalasini hal qilish bu, shuningdek, davlatlar oʻrtasida ishonchni tiklash, iqtisodiy aloqalarni jonlantirish va mintaqaning umumiy rivojlanish modeli uchun mustahkam poydevor yaratish demak edi.

Davr ruhiga mos diplomatik paradigma

Dunyo geosiyosiy landshaftining izchil oʻzgarib borishi endi jahon siyosiy maydonida mustahkam qolish uchun koʻplab oʻzgarishlarni, butunlay yangi siyosat, yangi mafkurani talab qilardi. Ana shunday bir sharoitda soʻnggi oʻn yillik Oʻzbekiston uchun tub yangilanishlar, ochilgan imkoniyatlar va shiddati taraqqiyot davri boʻldi.

Yangi Oʻzbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo ustuvor yoʻnalish sifatida belgilandi. Qoʻshnilar bilan ochiq muloqot, amaliy hamkorlik va oʻzaro manfaat tamoyillari yangi diplomatik yondashuvning asosiga aylandi. Bu yondashuvning mohiyati oddiy edi: mintaqaning barqaror rivojlanishi alohida davlatlarning emas, balki umumiy manfaatlarning uygʻunligiga bogʻliq.

Natijada chegaralarda yangi nazorat-oʻtkazish punktlari ochildi. Tojikiston, Qirgʻiziston, Turkmaniston, Qozogʻiston bilan chegara postlari serqatnov yoʻlaklarga aylandi. Qoʻshni xalqlar oʻrtasidagi muloqot, savdo-sotiq munosabatlarning yangi davri boshlandi.

Tarixda ayrim hujjatlar faqat huquqiy kuchi bilan emas, balki davr ruhini oʻzgartirgani bilan qadrlanadi. Koʻp yillar davomida mintaqaning eng murakkab masalalaridan biri boʻlib kelgan chegara muammosining huquqiy yechim topishi qoʻshni davlatlar oʻrtasidagi munosabatlarnigina emas, balki mintaqaning siyosiy muhitini ham oʻzgartirdi, unda yashayotgan millionlab insonlar va kelajak avlodlar taqdiriga ajoyib taʼsir koʻrsatdi.

Geosiyosatda ishonch eng qimmat resurslardan biri sanaladi. Ishonch paydo boʻlgan joyda transport yoʻllari ochildi, investitsiyalar kirib keladi, savdo hajmi ortadi va xavfsizlik mustahkamlanadi.

Keling, endi ana shu ishonchning amaliy natijasini aniq raqamlarda koʻrib chiqaylik. Oʻzbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasi hajmi 2016-yilda qariyb 2,5 milliard AQSH dollari boʻlgan boʻlsa, 2025-yil yakunlariga kelib ushbu koʻrsatkich 8 milliard dollardan oshdi. Jumladan, Qozogʻiston bilan oʻzaro tovar aylanmasi 5 milliard dollarni yoki Oʻzbekistonning mintaqaa mamlakatlari bilan savdosining 60,2 foizini tashkil etdi. Turkmaniston va Qirgʻiziston bilan 1,2 milliard dollarga yetdi. Tojikiston bilan savdo hajmi esa 900 million dollardan ziyod boʻldi.

Global eʼtirof va geosiyosiy voqeqlik

FARMATSEVTIKA – MILLIY RIVOJLANISHNING USTUVOR YO'NALISHI

Endilikda faqat ishlab chiqarishni ko'paytirish emas, balki ilm-fan, ta'lim, innovatsiya, investitsiya, xalqaro hamkorlik va kadrlar tayyorlash masalalariga yagona zanjir sifatida qaralyapti. Bu farmatsevtikani alohida tarmoq emas, aksincha, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi, milliy ilm-fani va inson kapitali bilan uzviy bog'liq tizim sifatida rivojlantirishga qaratilgan yondashuv ekanini ko'rsatadi.

Sir emas, sohada hali ishga solinmagan ulkan imkoniyatlar mavjud. Mamlakatimizda farmatsevtika bozori hajmi qariyb 2,5 milliard dollarga yetgan bo'lsa-da, mahalliy ishlab chiqarishning ulushi hali to'liq talabni qoplamayapti. Eksport hajmi o'sganiga qaramay, dori vositalari eksportining ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu esa tarmoqni yanada yuqori texnologiyali bosqichga olib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Shu ma'noda, 2030-yilgacha ichki bozorda mahalliy dori vositalari ulushini 70 foizga yetkazish va eksportni 1 milliard dollarga olib chiqish vazifasi qo'yilgani mamlakat farmatsevtikasi uchun mutlaqo yangi rivojlanish modeliga o'tishni anglatadi. Bunday ulkan maqsadlarga erishish uchun esa investitsiya, ilm-fan, texnologiyalar transferi, mahalliyashtirish, ta'lim va yuqori malakali kadrlar tayyorlash bir vaqtning o'zida rivojlanishi zarur. Aynan shu jihat bugungi islohotlarning eng muhim xususiyati sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi

Farmatsevtika ta'limi – Yangi O'zbekiston ushbu sanoatining intellektual poydevori. Shu ma'noda, endilikda mazkur sohani rivojlantirish faqat yangi zavodlar qurish yoki investitsiya jalb qilish bilan cheklanmaydi. Bu jarayonning muvaffaqiyati, birinchi navbatda, sohani yangi bilim, innovatsion fikrlash va xalqaro kompetensiyalarga ega kadrlar bilan ta'minlashga bog'liq.

Bugun dunyo farmatsevtika sanoatida raqobat xomashyo yoki ishlab chiqarish quvvati bilan emas, balki intellektual kapital bilan belgilanmoqda. Yangi molekullarni yaratish, biotexnologik preparatlar ishlab chiqish, sun'iy intellekt asosida dori vositalarini loyihalash, klinik tadqiqotlarni raqamlashtirish va katta ma'lumotlar tahlili kabi yo'nalishlar sohaning asosiy drayveriga aylanmoqda.



U ishlab chiqarish texnologiyalarini, xalqaro sifat tizimlarini, tadqiqot metodologiyasini, innovatsion boshqaruvni va raqamli texnologiyalarni ham chuqur o'zlashtirishi talab etiladi.

Keyingi yillarda Toshkent farmatsevtika instituti soha uchun malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha sezilarli natijalarga erishmoqda. Bugungi kunda bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha 3 ming 500 nafarga yaqin talabalar tahsil olishyapti. Doktoranturadagi izlanuvchilar soni esa 50 dan oshdi.

Instituting ta'lim va ilmiy salohiyatini kafedralarimizda faoliyat yuritayotgan 240 nafar professor-o'qituvchi ta'minlayapti, desak, adashmaymiz. Ularning 39 nafari fan doktori, 93 nafari fan nomzodi bo'lib, hozirgi kunda institutning umumiy ilmiy salohiyati 52,3 foizni tashkil etadi. Professor-o'qituvchi va mutaxassislarning malakasini oshirishga ham keng imkoniyatlar yaratilgan.

Ta'lim sifatini yaxshilash va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratamiz. Institutning ilmiy va ta'limiy faoliyati Rossiya, Turkiya, Belarus, Vengriya, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya hamda Qozog'iston kabi davlatlar oliy ta'lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlik asosida rivojlanmoqda. Jumladan, o'tgan davrlarda Rossiyaning Belgorod davlat milliy tadqiqot universiteti bilan farmatsiya yo'nalishida qo'shma ta'lim dasturi yo'lga qo'yildi. Ta'lim jarayoniga kredit-modul tizimi joriy qilinib, uni raqamlashtirish maqsadida "Registrator ofisi" tashkil etildi. Ilmiy izlanishlar uchun esa zamonaviy jihozlangan "Innovatsion farmatsevtik birikmalar" ilmiy laboratoriyasi ochildi.

Darvoqe, institut ilmiy faoliyatida ham samoliq natijalar qayd etildi. Bugungi kunda umumiy qiymati 5,7 milliard so'm bo'lgan 7 ta davlat granti – 1 ta fundamental, 5 ta amaliy va 1 ta innovatsion loyihaning ijrosi ta'minlanmoqda. Institut xalqaro akademik maydondagi mavqeiini mustahkamlab, "Times Higher Education" reytingida "Reporter" maqomiga ega.

Botir MADIYOROV
("Xalq so'zi").

belgilangan yillik ijara haqining 30 foiz miqdorida to'lov (garov puli) undiriladi. Ushbu mablag'lar jamiyatning bank hisob raqamiga kelib tushadi va tanlov g'olibining dastlabki ijara to'lovi sifatida hisob-kitob qilinadi. Tanlovda g'olib bo'la olmagan talabgorning ushbu to'lovi qaytariladi.

"Trastbank" XAB Jizzax viloyati filiali; h/r 2021 0000 9007 4754 5001;

MFO 00491, STIR: 304 741 887, "Aydar-Amasoy ko'llar tizimi" MChJ.

Tanlovda qatnashish uchun talabgor yoki uning vakili shaxsan yuxud pochta orqali buyurtma xat bilan, arizani ikki nusxada, suv bilan birga, 2 ta muhrlangan konvertda (asli va nusxasi) quyidagi hujjatlarni "Aydar-Amasoy ko'llar tizimi" MChJga taqdim etishi lozim:

1. Ko'rib chiqish uchun to'lovning to'langanligini tasdiqlovchi to'lov hujjatlari (BHMning uchdan bir baravari miqdorida);

Eng muhimi, bugungi kun talabalari auditoriyada o'tiribgina emas, balki innovatsion laboratoriyalarda, klinik tadqiqot markazlari va zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarida ta'lim olishyapti. Dual ta'lim tizimining keng joriy etilishi bitiruvchilarning mehnat bozoriga tayyor holda kirib kelishini ta'minlayapti.

Ilmiy g'oya laboratoriyada tug'iladi, universitetda takomillashtiriladi va sanoatda mahsulotga aylanadi. Bu esa innovatsiyalarning hayotiy siklini bir necha barobar tezlashtiradi.

Strategik tizim uflari

Yangi O'zbekiston farmatsevtikasi – milliy taraqqiyotning yangi drayveri. Shu ma'noda bugun oldimizda turgan ustuvor vazifalarni tahlil qilar ekanmiz, bir haqiqat yanada oydinlashadi. Bugun mamlakatimiz farmatsevtikasi o'z



tarixidagi mutlaqo yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ymoqda. Bu bosqichning eng muhim xususiyati shundaki, endilikda tarmoq faqat dori vositalari ishlab chiqaruvchi sanoat sifatida emas, balki ilm-fan, innovatsiyalar, yuqori texnologiyalar, investitsiyalar, raqamli iqtisodiyot va inson kapitalini birlashtiruvchi strategik tizim sifatida rivojlantirilmoqda.

Eng muhimi, mazkur islohotlarning markazida inson manfaati turibdi. Chunki har bir mahalliyashtirilgan dori vositasi, har bir yangi

texnologiya, har bir zamonaviy laboratoriya, avvalo, aholining sifatli, xavfsiz va hamyonbop dori vositalari bilan ta'minlanishiga xizmat qiladi. Bu esa inson qadrini ulug'lashga qaratilgan davlat siyosatining amaliy ifodasidir.

Bugungi kunda jahon farmatsevtika sanoati tubdan o'zgarmogda. Sun'iy intellekt yordamida yangi molekularlar kashf etilmoqda, gen terapiyasi va biotexnologik preparatlar keng qo'llanilmoqda, raqamli platformalar orqali klinik tadqiqotlar samaradorligi oshirilmoqda. Bunday sharoitda raqobatda ustunlikka erishish uchun moddiy resurslardan ko'ra intellektual resurslar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda, farmatsevtika ta'limi va ilmiy tadqiqotlar tizimini takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Oliy ta'lim muassasalari zamonaviy ishlab chiqarishning kuzatuvchisi emas, balki uning tashabbuskoriga aylanishi kerak. Universitetlar yangi bilimlar yaratiladigan, innovatsiyalar sinovdan o'tkaziladigan va iqtisodiyot ehtiyojlari uchun yechimlar ishlab chiqiladigan markazlarga aylanishi zarur.

Toshkent farmatsevtika instituti jamoasi ham ushbu yuksak maqsadlarni amalga oshirishda o'zini islohotlarning faol ishtirokchisi sifatida ko'radi. Biz ta'lim jarayonini xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish, zamonaviy laboratoriyalar imkoniyatlarini kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni mustahkamlash, yosh olimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashni o'z faoliyatimizning ustuvor vazifasi deb bilamiz.

Ayniqsa, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada chuqurlashtirish, dual ta'lim modelini takomillashtirish, talabalarni innovatsion loyihalarga keng jalb etish, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish va akademik mobillikni kengaytirish orqali mamlakatimiz farmatsevtikasi uchun yangi avlod mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratamiz.

Shu bilan birga, sohada faqat davlat idoralari yoki ta'lim muassasalari sa'y-harakatlari bilan yuqori natijaga erishib bo'lmaydi. Bu jarayonda ilmiy muassasalar, xususiy sektor, investorlar, farmatsevtika kompaniyalari va jamoatchilikning o'zaro hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Faqat shu yo'l bilan innovatsiyaga asoslangan barqaror ekotizimni shakllantirish mumkin.

Kamol RIZAYEV,
Toshkent farmatsevtika instituti rektori,
tibbiyot fanlari doktori, professor.

KO'CHKAK ANJIRI

Qarshi tumanining Ko'chkak mahallasi ahli azal-azaldan anjirchilik bilan shug'ullanib keladi. "Ko'chkak anjiri" degan nom esa mahalliy bozorda brendga aylanib ulgurgan.

Omilkorlik

Bugungi kunda mahalladagi 1650 dan ziyod xonadonlarda qariyb 7100 nafarga yaqin aholi istiqomat qilmoqda. Sakson foizdan oshiq xonadon vakillari o'z tomorgalarida anjir yetishtiradi. Shu bilan birga, bu borada yangi loyihalarni amalga oshirayotgan tashabbuskorlar ham ko'p.

Vohid Isomov ikki yil avval mahalladagi yoshlar yetakchisi

tavsiyasi asosida 37 sotix yer maydonini ijaraga olib, 250 tup anjir ko'chatini ekkani edi. Bu yil bog' to'liq hosilga kirdi.

– Hozir hosilni yig'ib olib, bozorga yetkazib beryapmiz, – deydi V. Isomov. – Xomaki hisob-kitobimizga ko'ra, mavsum davomida bog'dan 60 mln. so'mdan ko'proq daromad olishni mo'ljallaganmiz. Bu birinchi yili, keyingi yillardan esa daromad yanada oshib boradi.

Ko'chkak mahallasida o'tgan



yili 50 gektar yer maydonida anjizor tashkil etilib, fuqarolarga kooperatsiya asosida ajratib berildi. Bu yaqin bir-ikki yil ichida anjir yetishtirish salmog'i yanada o'tirishni anglatadi.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi").

KITOB javoningizga

“MEN TANIGAN O'ZBEKISTON”

Taniqli turk adibi, olim, jamoat arbobi, doktor Kemal Yavuz Atamanning yaqinda chop etilgan "Men tanigan O'zbekiston" nomli kitobini o'qir ekanman, mamlakatimizning o'ziga xos va betakror go'zalligini, shonli tarixi, ko'hna shaharlari, bunyodkor xalqi, yuksak axloqiy qadriyatlari, olimu fozillari, ko'zlari yonib turgan yoshlarini hayrat va hurmat bilan kuzatganini sezdim.



Kemal Yavuz Ataman oddiy siyosiy tahlilchi emas, o'z ko'zi bilan ko'rganlarini yozadi. Muallif ushbu kitobida xalqimizni ortga qaytmas islohotlar sari ilhomlantirgan, tarixning yangi sahifalarini ochib, milliy taraqqiyotimizda burilish nuqtasini yaratgan Prezidentimizning qat'iy hamda o'zgarmas siyosiy irodasi haqida adolatti so'zlarni bayon qiladi.

O'zbekiston haqida yoza turib, "Bu yer bizning ota makonimiz, sivilizatsiyamiz, buyuk davlatlarimiz bino bo'lgan markaz, bizga to'g'ri yo'nalish bergan ulug' ulamolar va mutasavviflarning bosh manbai, tariximizni belgilab bergan atog'li davlat arboblari va yetuk sarkardalarning muqaddas o'chog'idir. Bizlar mana shu hududlardan Anado'luga yo'l olgan alplar va alp eranlar (g'oziy darveshlar)ning avlodlarimiz. Shunday ekan, bizning mansubligimiz har ikki tomonga ham daxldordir: bir tomonimiz, o'zimiz tug'ilib o'sgan ona Vatanimiz Turkiya bo'lsa, ikkinchi tomonimiz, sivilizatsiyamiz ildiz otgan ota makonimiz – mana shu tabarruk tuproqdir", deya ta'rifiyladi.

Doktor Kemal Yavuz Ataman yurtimizga ko'p bora kelgan. Ayniqsa, keyingi yillardagi safari taassurotlari orasidan nurlil kelajakka peshvoz chiqayotgan O'zbekistonning yangi tarixi baxtning ovozi bo'lib sado beradi. U insoniyatning ma'naviyat beshigi, muqaddas merosi – Samarqand, Buxoro, Toshkent, Urganch, Termiz, Qo'qon, Farg'ona kabi shaharlardan yetishib chiqqan buyuk olimlar, so'fiylar, ustozlar, amirlar va sultonlar merosi butun dunyoga ziyo taratib kelayotganini, turi davrlarda Osiyoga, Yevropaga, Kavkazga, Yaqin Sharq hamda

Shimoliy Afrikaga cho'zilgan muazzam ilm, irfon va oliyjanob qadriyatlar aynan shu yerdan tarqalganini qayd etadi.

Muallif bu muqaddas tuproq Xoja Ahror Valiy, Alisher Navoiy kabi buyuk shaxslarni, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Mahmud Zamaxshariy kabi ulug' ulamolarni, Najmiddin Kubro, Abduxolliq G'ijduvoni, Yusuf Hamadoni, Bahouddin Naqshband kabi tasavvuf pirlarini, Xorazmiy, Farg'oni, Ibn Sino, Forobiy, Ulug'bek, Ali Qushchi kabi jahonshumul olim va faylasuflarni bergan donishmand ota yurt bilan faxrlanadi.

Uning yozishicha, O'zbekistonni tanishning ikkinchi nuqtasi Yangi O'zbekistonni anglamoqdirl. Bugungi yangilanayotgan O'zbekistonni idrok etish uchun uning asoschisi, yuksak siyosiy iroda sohibi bo'lmish Prezident Shavkat Mirziyoyevning g'oyalari, loyihalari, xalqaro maydondagi dadil chiqishlari va strategik qarashlarini yaqindan kuzatib borish taqozo etiladi.

Ushbu kitobning har satri va bobida Yangi O'zbekistonda kechayotgan egzu evrilishlar, dono rahbarning kuchli strategiyasi, asliga sodiq qolgan hamda zamonga munosib yangi mentalitet, islohot va qayta tiklanish davridagi burilishlar, barcha tizimdagi jadal hamda keng ko'lami sa'y-harakatlar o'z aksini topgan.

Zulfiya MO'MINOVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,

"Ma'rifat" targ'ibotchilari jamiyati a'zosi.

REKLAMA

TANLOVDA QATNASHISH ISTAGINI BILDIRGAN YURIDIK SHAXSLAR DIQQATIGA!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-fevraldagi PQ-141, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7-martdagi 124-qarorlariga asosan, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining bo'sh suv havzalari uchastkalari tanlov asosida ijaraga berilishi ma'lum qilinadi.

Tanlov tashkilotchisi: "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi" MChJ.

Manzili: Jizzax viloyati, Arnasoy tumani, G'oliblar shaharchasi.

Telefonlar: 94-347-62-27, 93-303-44-28.

Tanlov predmeti: Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi suv havzasidagi 207,9 ming gektar jami 103 ta lotni baliq ovlash xo'jaliklariga sanoat baliq ovlashni amalga oshirish uchun ochiq tanlov asosida 10 (o'n) yilga ijaraga berish.

Talabgorlar tanlov haqidagi batafsil ma'lumotlarni "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi" MChJdan olishlari mumkin.

Balabgorlardan arizani ko'rib chiqish uchun BHMning uchdan bir baravari miqdorida to'lov undiriladi. Buyurtmanomani ko'rib chiqish uchun to'lanadigan to'lovlar qaytarilmaydi. Bundan tashqari, talabgordan suv havzasi uchastkasi uchun

2. Korxona guvohnomasi va ustavi (nizom) nusxasi;
3. Korxona rahbari pasport nusxasi va tayinlanganligi to'g'risida buyruq, korxonada mavjud ishchi-xodimlar ro'yxati (pasport nusxalari bilan);
4. Baliq ovlashni amalga oshirish bo'yicha biznes-reja:
- 4.1. Biznes-rejada quyidagi assosiy qoidalar aks etirilishi lozim:
 - bir yilda o'rtacha ovlashni kutilayotgan miqdor;
 - iqtisodiy samaradorlik hisob-kitoblari haqidagi ma'lumotlar;
 - kiritilishi kutilayotgan investitsiya miqdori va sohasi;
 - baliq ovlashni amalga oshirish bo'yicha biznes-rejaning moliyalashtirish manbalari (talabgorning o'z mablag'lari hisobiga, kreditlar va hokazo) bilan ta'minlanganligi haqidagi ma'lumotlar;
 - tashkil etiladigan ish o'rinalari soni;
 - xodimlar shtatining tajribali baliqchilar, ixtiologlar, boshqa mutaxassis va ekspertlar bilan to'ldirilganligi;
5. Korxona balansidagi yoki aynan korxona rahbari nomidagi baliq ovlash va tabiatni muhofaza

qilish tadbirlarini amalga oshirish uchun moddiy-texnika vositalari (rusumi ko'rsatilgan qayqlar va motorli qayqlar, avtotransport vositalari, ovlash qurollari, baliq va baliq mahsulotlarini saqlash uchun sovitish uskunalari va hokazolar)ning mavjudligi haqidagi ma'lumotlar;

6. Talabgor korxonaning umumiy va baliqchilik sohasidagi faoliyat davriga oid ma'lumot;

7. Korxona balansi (o'tgan yil yakuni yoki joriy yil yakunlangan choragi bo'yicha), ya'ni o'z mablag'lari va moliyaviy holatlari to'g'risida ma'lumot;

8. Talabgorning tabiatni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlari kompleksi.

Talabgorlardan yuqorida ko'zda tutilmagan hujjatlarni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Tanlovda ishtirok etish uchun qiziqish bildirgan yuridik shaxslar jamiyatdan quyidagi hujjatlar va ma'lumotlarni olishlari mumkin:

1. Tanlovda qatnashish shartlari, talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan hujjat va ma'lumotlar ro'yxati;
2. Tanlovga qo'yilgan suv havzasi uchastkalariga oid ma'lumotlar:
 - suv havzasi uchastkasi (konturi)ning raqami;

- suv havzasi uchastkasining joylashgan koordinatlari;
- suv havzasi uchastkasining maydoni;
- suv havzasi uchastkasining xarita-sxemasi;
- suv havzasi uchastkasining o'rtacha baliq mahsuldorligi;
- suv havzasi uchastkasining yillik ijara haqi miqdori;
- 3. "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi" MChJ uchastkalarini baliq ovlash xo'jaliklariga baliq yetishtirish va ovlash uchun ijaraga berish shartnoma loyihasi bilan jamiyatda tanishlari mumkin.

Talabgorlarning tanlov takliflari joylashgan konvertlar 2026-yil 27-avgust kuni soat 10.00 da Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Beshquvur ko'chasi, 56-uyda joylashgan Sirdaryo – Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma'muriy binosida ochildi.

Tanlovga oid hujjatlar tanlov o'tkazilishi haqida e'lon berilgan sanadan boshlab 2026-yil 25-avgust kuni soat 18.00 ga qadar jamiyat ma'muriy binosida qabul qilinadi.

2027-yil 1-yanvardan imtiyozli avia, temir yo'l va shaharlararo avtobus chiptalarini “Baraka” ijtimoiy karta mobil ilovasi orqali onlayn xarid qilish imkoniyati yaratiladi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 22 170 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir H. Qarshiyev.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.30 Topshirildi – 23.35 1 2 3 4 5 6